

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEVA GULNORA XURSANDOVNA

**O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA MADANIYAT MUASSASALARI
FAOLIYATI: NATIJALAR VA MUAMMOLAR
(Surxondaryo viloyati misolida 1920-1990-yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Xudayberdiyeva Gulnora Xursandovna

O‘zbekistonda Sovet davrida madaniyat muassasalari faoliyati: natijalar va muammolar (Surxondaryo viloyati misolida 1920-1990 yu.).....3

Худайбердиева Гулнора Хурсандовна

Деятельность учреждений культуры в Советский период в Узбекистане: результаты и проблемы (на примере Сурхандарьинской области 1920-1990 гг.).....26

Khudayberdieva Gulnora Khursandovna

Activities of cultural institutions in Uzbekistan during the Soviet period: results and problems (on the example of Surkhandarya region 1920-1990.).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....56

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEVA GULNORA XURSANDOVNA

**O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA MADANIYAT MUASSASALARI
FAOLIYATI: NATIJALAR VA MUAMMOLAR
(Surxondaryo viloyati misolida 1920-1990 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2022.1.PhD/Tar1049 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terSU.uz) amda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Saypulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoliqova Raxbar Ergashevna
tarix fanlari doktori, professor

G'afforov Shokir Safarovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «23» oktyabr soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino, 4-qavat, majlislar zali). Tel.: +998762231311; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (325 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «11» oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «11» oktyabr dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.R. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

O.A. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

X.E. Xolmo'minov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashayotgan dunyoda madaniyat davlatlarning rivojlanishi va xalqaro miqyosda milliy nufuzini oshirishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Madaniy muassasalar aholining ma'naviyati va bilim salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutib, ijtimoiy barqarorlik va intellektual taraqqiyotni ta'minlaydi. Jahonda yuz berayotgan madaniy o'zgarishlar, axborot texnologiyalari rivoji va urbanizatsiya jarayonlari madaniyat muassasalarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlar madaniyatni rivojlantirish yuzasidan o'zlarining konsepsiyalarini ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va YUNESKO tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda madaniyat sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil dasturlar amalga oshirilmoqda¹. Xususan, aholi ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda madaniy muassasalarning rolini kuchaytirish, ta'lim va tarbiya bilan uyg'unlikdagi faoliyatni yo'lga qo'yish, madaniy tadbirlarni tizimli tashkil etish kabilar shular jumlasidandir.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi ilmiy markazlarda sovet davrining madaniy-ma'naviy siyosati keng qamrovda ilmiy tahlil qilinmoqda. Tadqiqotlar davomida sovet hokimiyatining mahalliy ziyolilarni ommaviy qatag'on qilishga yo'naltirilgan siyosati, ta'lim tizimini kommunistik mafkura asosida qayta shakllantirishga qaratilgan harakatlari, madaniy muassasalar faoliyatidan milliylikni siqib chiqarish siyosati, erkin ijod va milliy qadriyatlarga nisbatan cheklov qo'yilganligi, tarixiy obidalarga nisbatan loqayd va vayronkor munosabati, chekka hudud xalqlarining madaniy va ma'rifiy huquqlarini cheklash kabi holatlar chuqur o'rganilmoqda. Xususan, sovet tuzumining asosiy maqsadi – mahalliy aholining ongini kommunistik mafkura asosida shakllantirish bo'lganligi, barcha faoliyat esa markaz manfaatlariga bo'ysundirilgani ilmiy asosda o'rganilmoqda.

Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida milliy yuksalish sharoitida tarixiy haqiqatlarga xolisona yondashish, madaniy merosni qayta baholash va milliy manfaatlarga asoslangan qarashlarni shakllantirish imkoniyati yuzaga chiqdi. Xususan, madaniyat muassasalarining faoliyatini vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'naviy yuksalish, inson huquqlarini e'zozlash, tarixiy xotirani tiklash va uni asrab-avaylash kabi tamoyillar asosida ilmiy-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan qayta o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zero "Necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turadigan muhim masala bo'lib qolmoqda"². Ushbu yondashuv, ayniqsa, tarixiy siyosiy jarayonlar kontekstida madaniyat muassasalarining o'tmishdagi faoliyatini chuqur ilmiy tadqiq qilishni zaruratga aylantiradi.

¹ UNESCO culture for development indicators: implementation toolkit / UNESCO Cultural Diversity Division. – Paris: UNESCO, 2009. – 112 p. (Culture and Development Indicators Series)

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.– Тошкент: "O'zbekiston". 2021. – Б. 291.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi roli va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”⁴ Farmonlari, 2021-yil 19-iyun PQ-5150-son “O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵gi Qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyat, ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, iqtisodiyotni shakllantirish” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi davrda O‘zbekiston va MDH davlatlarida SSSR tarixi, suveren davlatlarning milliy tarixini o‘rganish bo‘yicha muayyan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning XX asr 20-90-yillar tarixini milliy g‘oya va milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan yangidan yaratish jarayoni ham davom etmoqda. Bu davr tarixini yaratishdagi obyektiv tahlillar faqat 2000-yillardan yanada ommalashdi bu davrga kelib 1920-1990-yillar tarixini talqin etishga doir yangicha qarashlar paydo bo‘ldi.

Dissertatsiyada XX asrning 1920-1990-yillarida O‘zbekistonda kechgan siyosiy, ijtimoiy-tarixiy hamda madaniy jarayonlarga doir mavjud adabiyotlar quyidagi guruhlariga bo‘lib tahlil etildi:

1) sobiq sovet davrida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar hamda ommaviy nashrlar;

2) mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.

Sovet hokimiyati yillarida jamiyatning 1920-1990-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti masalalariga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan.

Birinchi guruhga kiritilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarning asosiy xususiyati shundaki, ular ma’muriy-buyruqbozlik tizimi hukmron bo‘lgan davrda yaratilib, marksistik metodologiyaga tayangan holda kommunistik partiyaning ideologik qarashlarini keng yoyishga qaratilgan. Sovet davlatining 1920-yildan 1990-yilgacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining turli jabhalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar aynan shu davrda yaratilgan bo‘lib, ularda hukmron mafkuraning ta’siri sezilarli darajada namoyon bo‘ladi.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6000-son Farmoni. [Elektron resurs]. Manba: <https://lex.uz/docs/-4829149> (murojaat sanasi: 15.10.2024-yil).

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni. [Elektron resurs]. Manba: <https://lex.uz/docs/-5841063> (murojaat sanasi: 15.10.2024-yil).

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2021 yil 19 iyun. “O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5150-son Qarori. [Elektron resurs]. Manba: <https://lex.uz/docs/-5465593> (murojaat sanasi: 15.10.2024-yil).

Ushbu tarixiy davrga oid adabiy manbalarning aksariyatida madaniyat sohasining muhim masalalari, xususan uning faoliyatini baholashning asosiy o'ldovlari hukmron mafkuraning talablari bilan belgilanar edi. Buni 1950-1960-yillarda chop etilgan ko'plab adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda yaqqol ko'rish mumkin⁶. Shunga qaramay, ushbu mualliflarning asarlarida keltirilgan boy faktik materiallar va arxiv hujjatlaridan olingan ma'lumotlar bugungi zamonaviy ilmiy tadqiqotchilar uchun o'ta muhim va qimmatli tarixiy manbalar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston davlati tarixini ilmiy tahlil qilishga bo'lgan qiziqish XX asrning 1960-1980-yillarida sezilarli darajada oshdi. Bu davrda T.M. Qoriniyozov, X.N. Po'latov, M. Qoraxonov, G.A. Uvarov, R. Sharafiddinov, I. Qodirov, M. Vaxobov, S. Muhammedov kabi bir qator yetuk olimlarning asarlarida kommunistik mafkura va hukmron siyosiy ideologiya nuqtayi nazaridan yoritish va tahlil qilish ustuvorlik qildi. Ushbu adabiyotlarda Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasining madaniyat sohasidagi "yo'l ko'rsatuvchi roli", bu masalaning murakkab "dialektikasi", shuningdek, milliy madaniyatlarning rivojlanish jarayoni tarixiy kontekstda kommunistik g'oyalar asosida talqin etildi⁷.

Sovet hukmronligi davrida nashr etilgan adabiy va ilmiy asarlarda Surxondaryo viloyatining madaniy hayoti, ta'lim-tarbiya tizimi, shuningdek, madaniy-ma'rifiy muassasalarning olib borgan ishlari muayyan darajada yoritilgan. Bu manbalar o'sha davrda viloyatning madaniy rivojlanishi haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi⁸. Xususan, N.Q. Uljaboyeva o'zining ilmiy ishida 1946-yildan 1970-yilgacha bo'lgan davrda Surxondaryo viloyati maorif tizimida kommunistik partiyaning ta'lim sohasidagi siyosatini yoritishga harakat qilgan⁹.

⁶ Кориниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар -Т : Қизил Ўзбекистон 1951; Қорахонов М. Совет Ўзбекистони маданияти. –Т.: Ўздавнашр, 1951. – Б. 42; Уваров :Г. А . Узбексий драматургический театр. Очерк историй. – М.: Наука, 1959; Қодиров И. Ўзбекистон ССРда халқ маорифининг муваффақиятлари. – Т.: Ўздавнашр, 1959; Пўлатов Х. Н . Культурно воспитательная деятельность Советского государства в Узбекистане. – Т.: Госиздат, 1959; Вахабов М. Формирование узбекской социалистической нации. Ташкент, 1961; Шарафуддинов Р. Школьное образование в Узбекской ССР (1917-1955). –Т.: Госиздат УзССР, 1961. Мухаммедов С. Культура Советского Узбекистана. – Т.: ТашГУ, 1985.

⁷ Парфёнов Г.В. История исследования Старого Термеза (Материалы к археологической карте Сурхандарьинской области). – Т., 1941; Кароматов Ф. Ўзбек мусикаси совет даврида. – Т.: Ўқитувчи, 1967; Абдуллаев Ф. Ўзбекистонда хотин-қизлар таълимининг ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон, 1968; Турсунов Х. О взаимоотношениях национального и интернационального в культуре. – Душанбе: Ирфон, 1972; Хоназаров К. Социалистическая культура–великое завоевание советского народа. – М.: Знание, 1972; Шермухаммедов С. Рассвет и сближение национальных культур народов СССР. Автореф. дисс. докт. филос. наук. Ташкент, 1973; Халияров Х., Бычков Д., Блинников А. Сурхандарьинская область. –Т., Узбекистан, 1974; Ханазаров К. Дialeктика национального и интернационального в культуре развитого социализма. – Т.: Узбекистан, 1983; Саматов Б. Особенности развития национальных культур народов СССР в условиях зрелого социализма. – Т.: Фан, 1983; Элбаева А. Б. Основные уровни и механизмы развития социалистических национальных культур в советском обществе. – Фрунзе: Илим, 1988 Трапезников Г. Расцвет и взаимовлияние национальных культур республик Средней Азии (1959–1972 гг.). – Фрунзе: Илим, 1975; Социалистическая культура и духовный мир человека / Под редакцией Е.М. Бабасова, А.Н. Елсунова. – Минск: Университетское, 1985; Расулев Х.Г., Атамуратов С.А. Интернационализация национальных культур. – Т.: Узбекистан, 1986; Мельников А.П., Сливачик А.П. Научное управление культурой в социалистическом обществе. – Минск: Университетское, 1988.

⁸ Захаров С.М., Мизарбаев А.Я. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской области Узбекистана советского периода (1917-1932 гг.). – Ташкент: Фан, 1968.

⁹ Улжабаева Н.К. Развитие народного образования в Узбекистане в период 1946-1970 гг. (На материалах Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей). Автореф. дисс. канд. ист.наук. Т., 1974.

N. Achilovning ilmiy ishlari 1946-yildan 1958-yilgacha bo'lgan davrda Surxondaryo viloyatida olib borilgan madaniy qurilish ishlariga bag'ishlangan bo'lib, muallif unda bu sohadagi o'zgarishlarni asosan ijobiy tomondan yoritadi. Mazkur adabiyotlarda keltirilgan faktlar va ma'lumotlardan ilmiy tadqiqot jarayonida, ayniqsa ularni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir¹⁰.

Shuningdek, T.Rashidova¹¹, A.Norbekov¹², Z.Mirzayev¹³ kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida 1950-1970-yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatidagi xalq ta'limi sohasidagi muammolar, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni, matbuot faoliyati va qishloq joylaridagi madaniyat muassasalarining ahvoli o'sha davrning ideologik talablari asosida yoritilgan.

X. Xoliyorov, A.I. Blinnikov va D.D. Bichkovlarning birgalikdagi asarida Surxondaryo viloyatida kommunistik partiyaning rahbarligi ostida ta'lim tizimining shakllanishi, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni, fan va madaniyatning taraqqiyoti ideologik nuqtayi nazardan haddan tashqari ideallashtirilgan. Lekin shunga qaramay, ushbu asarda o'rganilayotgan mavzuga oid bir qator faktik tarixiy ma'lumotlar ham mavjud bo'lib, ulardan foydalanish mumkin¹⁴.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida sovet davlati hukmronligi davridagi moddiy va ma'naviy madaniyat hamda madaniy muassasalar faoliyatiga bag'ishlangan asarlar, olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar kiradi. Bu davr tadqiqotchilari madaniy qurilish tarixini biryozlama ideologik yondashuvdan xoli tarzda, umuminsoniy qadriyatlar va O'zbekistonning milliy manfaatlarini ustuvor qo'ygan holda, madaniy-ma'rifiy sohaning turli davrlari va yo'nalishlarini keng qamrovda o'rganishga kirishdilar. Bu yangi metodologik yondashuv tarixiy voqealarga xolisona baho berish imkonini yaratdi¹⁵.

¹⁰ Ачилов Н. Культурное строительство в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях (1946-1958). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т., 1974.

¹¹ Рашитова Г. Культурное строительство в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях (1959-1965 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т., 1973.

¹² Нарбеков А. Развитие сельских учреждений культуры Узбекистана и их место в формировании нового человека. Автореферат дис. канд. ист. наук. – Т., 1991.

¹³ Мирзаев З. Культурная жизнь села Узбекистана: состояние, особенности и проблемы: (60-70 г). Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Т., 1991.

¹⁴ Халияров Х., Бычков Д., Блинные А. Сурхандарьинская область. – Т.: Узбекистан, 1974.

¹⁵ Маврулов А. Культура Узбекистана на современном этапе. –Т., 1992; Нажимов Т.Н. Народные традиции и культура. –Т., 1992. Нашанов М. Обновление духовной жизни социалистической нации – “Знание” УзССР. – Т.: Узбекистан, 1989; Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии: Пути обновления, реформы, борьба за независимость. – Т.: Ўзбекистон, 2000; Турсунов Ж.Н. Ўзбекистон шаҳарларининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий тараққиёти тарихи (Бойсун, Шарғун ва Шўрчи шаҳарлари мисолида) 1971-1990-йй. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 1995; Тўраева М. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммо ва оқибатлар (Жанубий вилоятлар мисолида, 1920-1940 йй). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент, 2001; Абдурахмонова Ж. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги катагонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925-1941 йй). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент, 2002; Юлдашева М. Ўзбекистон миллий маданияти: ривожланиш йўналишлари ва муаммолари (XX асрнинг 20-йиллари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент, 2004; Жўраева Н. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётда хотин-қизларнинг ўрни (XX асрнинг 20-30-йиллари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент, 2004; Юнусова Х.Э. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва маънавий ҳаёт. Тарих фанлари докт. диссертация автореферати. – Тошкент, 2011; Исаев О. Сурхон воҳасидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар (1925-1941-йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin nashr etilgan ilmiy ishlar sovet davridagi mamlakatning moddiy va ma’naviy madaniyati, shuningdek, madaniy muassasalar faoliyati tarixini yetarlicha qamrab olgan. Ammo, ushbu tadqiqotlarda Surxondaryo viloyatining o‘ziga xos moddiy va ma’naviy madaniyati hamda madaniy muassasalar faoliyati tarixini chuqur o‘rganish maqsadi qo‘yilmagan. Natijada, bu hududga oid ma’lumotlar umumiy kontekstda, qisqacha tarzda keltirilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, Surxondaryo viloyatining sovet davridagi tarixini o‘rganishga qiziqish ortdi va bir qator mahalliy tarixchi olimlar bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ushbu tadqiqotlar sirasiga S. Tursunov, T. Pardayev, E. Qobilov, B. Murtazoyev¹⁶ va boshqa mualliflarning asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Mazkur adabiyotlarda Surxondaryo viloyatining O‘zbekiston xalq xo‘jaligidagi roli, mintaqada tashkil etilgan iqtisodiy birlashmalar, aholisining etnik tarkibi, mahalliy urf-odatlar, shuningdek, xalq ta’limi muassasalarining tashkil etilish tarixi kabi keng o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlar taqdim etilgan. Ammo, ushbu tadqiqot mavzusiga bevosita aloqador bo‘lgan chuqur ilmiy izlanishlar yoki monografik asarlar nashr etilmagan. Bu esa mavzuning yanada teran o‘rganilishiga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Umuman, yuqorida keltirilgan sovet va mustaqillik davri tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlar tahlili ko‘rsatmoqdaki, ularda XX asrning 1920-1990-yillardagi Surxondaryo viloyatidagi madaniyat muassasalari faoliyati to‘la va batafsil holatda o‘rganilmagan. Shu bois, ushbu mavzu tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ATD-1 “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: munosabatlar va qarashlar” (2015-2021-yy.) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda sovet davrida madaniyat muassasalar faoliyati: natijalar va muammolar (Surxondaryo viloyati misolida 1920-1990 yy.) ga oid jarayonlarni tahlil etish asosida mintaqada vujudga kelgan tarixiy voqelikning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sovet davlatining sotsialistik madaniyatni shakllantirish yo‘lidagi kommunistik ideologiya bilan singdirilgan siyosatini ochib berish;

илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. Термиз, 2020; Пардаев Т. Ўзбекистоннинг жанубий худудларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1945-1991-й.). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. Термиз, 2021; Ҳасанова Н. Ўзбекистонда совет ҳукуматининг маданий-маънавий сиёсати ва унинг натижалари (Сурхон воҳаси худуди мисолида, 1917-1941-йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. Термиз, 2021; Нарманов Ф.А. XX асрнинг 20-30-йилларида Ўзбекистон ижтимоий ҳаётида маданий-маърифий муассасаларнинг ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. - Самарқанд, 2020.

¹⁶ Турсунов С., Қобилов Э., Пардаев Т., Муртазоев Б. Сурхандарё тарих кўзгусида. – Т.: Шарқ, 2001; Турсунов С., Қобилов Э., Муртазоев Б., Пардаев Т. Сурхандарё тарихи. – Т.: Шарқ, 2004 Axmedova G.O‘. O‘zbeklarning an‘anaviy moddiy madaniyati. – Termiz: “Surxon ilm nashri” nashriyoti, 2024. B. 162.

Surxondaryo viloyatida sovet davlatining madaniyat muassasalari faoliyatini mustahkamlashda xalq ta'limi muassasalarining o'rini tahlil etish;

Surxondaryo viloyati kontekstida sovet davlatining sotsialistik madaniyat sohasida amalga oshirgan islohotlari va ularning natijalarini tahlil qilish;

Sovet davlatining milliy ziyolilar va mahalliy rahbarlarga nisbatan qatag'on siyosatining asl mohiyatini ochib berish;

Surxondaryo viloyatida ikkinchi jahon urushi davridagi madaniy muhit va madaniyat muassasalarining ishini o'rganish;

Surxondaryo viloyatida rivojlangan sotsializm davridagi madaniyat muassasalarining faoliyatini tahlil qilish, aniqlangan kamchilik va xatolarni ilmiy asoslash;

tadqiqot doirasidagi davrga oid ko'plab arxiv hujjatlarini tarixiy tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish;

tadqiqot natijasida shakllantirilgan nazariy xulosalar asosida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obykti sifatida 1920-1990-yillarda sovet davlatining Surxondaryo viloyatidagi madaniyat muassasalari faoliyati tarixini yoritib berish belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda sovet davrida madaniyat muassasalar faoliyati: natijalar va muammolar Surxondaryo viloyati misolida 1920-1990-yillarning tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda asosan ketma-ketlik, tarixiylik tamoyili, tizimlilik, muammoli, hududiy yondashuv, xolislik tamoyillariga asoslanib yoritish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sovet davlatining dastlabki ilk yillarida Surxondaryo okrugida tuzilgan "qizil choyxona" lar asosiy madaniyat o'chog'i bo'lib qolganligi, "qizil karvon", "qizil barja", agitvagon singari ko'chma madaniy-oqartuv muassasalari alohida muhim ahamiyat kasb etganligi, Termiz shahrida Amir Olimxon davrida qurilgan masjid ateizmni targ'ib qilish markaziga aylantirilganligi aniqlangan;

Surxondaryo okrugida madaniy muassasalarni tashkil etishdagi asosiy muammolar, milliy madaniy muassasalarni qat'iy taqiqlanishi, ushbu soha xodimlarini siyosiy jihatdan qattiq tazyiq ostiga olinishi, mahalliy madaniy muassasalariga sovet san'at asarlari, musiqa asboblari joriy etilishini taqiqlash kabi ma'lumotlar o'rganilgan;

Surxondaryo viloyatida tashkil topgan madaniy muassasalarni iqtisodiy holati, uni ish o'rinlar bilan ta'minlashdagi muammolari, mutaxassis kadrlarni yetishmasligi, rus millati vakillarini ushbu sohani milliy tuyg'ular asosida tushunib yetmasa-da ularni boshqaruv tizimiga rahbar etib qo'yilishi, Termizdagi kino seanslar asosan zobitlar uyida hamda M.Gorkiy nomidagi istirohat bog'ida tashkil etilganligi, Denovda ilk gazeta lotin alifbosida "Qizil Denov" nomi bilan chop etilganligi asoslangan;

Sovet davlati davrida Surxondaryoda tashkil topgan teatrlar, muzeylar, xalq jamoalari, radio uzellar, kutubxonalar, matbuotdagi chiqishlar asosan milliy-anʼanaviy qadriyatlarga qarshi boʻlgan kommunistik mafkura siyosati taʼsirida boʻlganligi shuningdek ateistik ruhda nazoratga olinganligi, milliylikdan deyarli voz kechgan “yangi sovet adabiyoti” vujudga kelganligi, Boysunda tuzilgan “Shalola” ansambli faoliyatiga sovet mafkurasining taʼsiri sababli maʼlum vaqt cheklab qoʻyilganligi tarixiy xolisona maʼlumotlar bilan tadqiqot jarayonida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iboratdir:

Oʻzbekistonda sovet hukumatining madaniy-maʼnaviy siyosati va uning natijalariga oid tarixiy maʼlumotlar asosan ilmiy jihatdan yoritilib, hozirgi davrda dolzarb islohotlar asosida madaniy-maʼrifiy sohalar uchun zaruriy taklif va tavsiyalar berilib, Sovet davlatining madaniy – maʼnaviy sohada amalga oshirgan siyosati ochiq-oydin yoritildi. Bu maʼlumotlar hozirgi davr yoshlarni milliy madaniyat va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashi yoritilgan;

Oʻzbekiston tarixini aks ettirgan sovet hukumatining madaniy-maʼnaviy siyosati va uning ayanchli natijalari arxiv hujjatlari, tarixiy, matbuot hamda dala tadqiqotlari asosida boyitildi va amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Oʻzbekistonda asosan sovet davlatining madaniy-maʼnaviy siyosati va uning natijalari va muammolari tarixini bayon etish Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy arxivi, viloyat va tuman arxiv fondlari materiallari shuningdek, tarixiy manbalarga asoslangani hamda tadqiqot mavzusi boʻyicha asosiy natijalar respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda, konferensiyalarda keng muhokama qilinganligi, amaliy natijalarining esa vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati asosan sovet davlatining moddiy-maʼnaviy madaniyat va madaniy muassasalar sohasida amalga oshirilgan siyosatini Surxondaryo viloyati misolida aniq tasavvur hosil qilishga koʻmak beradi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati, birinchi navbatda, madaniyat tarixi sohasiga oid ilgari ilmiy tadqiqotlarda oʻz ifodasini topmagan faktlar va amaliy xulosalarning umumlashtirilganligidadir. Ushbu holat tadqiqot natijalaridan Oʻzbekiston tarixi fanidan talabalar uchun darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari tayyorlashda, qolaversa, oliy taʼlim muassasalarining madaniyat va tarix fakultetlarida maxsus kurslar va seminar mashgʻulotlarini oʻtkazishda bevosita foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbekistonda Sovet davrida madaniyat muassasalari faoliyati: natijalar va muammolar (Surxondaryo viloyati misolida 1920-1990-yy.) mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Sovet davlatining dastlabki yillarida Surxondaryo okrugida tuzilgan “qizil choyxona” lar asosiy madaniyat oʻchogʻi boʻlib qolganligi, “qizil karvon”, “qizil barja”, agitvagon kabi koʻchma madaniy-oqartuv muassasalari muhim ahamiyat kasb etganligi, Termiz shahrida Amir Olimxon davrida qurilgan masjid ateizmni targʻib qilish markaziga aylantirilganligi bilan bogʻliq maʼlumotlardan “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” koʻrsatuvi ssenariysi ishlab chiqishda

foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-fevraldagi 03-30-322-son ma’lumotnomasi bilan tasdiqlangan). Natijalar sovet hukumatining madaniyat sohasida amalga oshirgan siyosati, uning ijtimoiy-madaniy natijalarini tahlil qilishga xizmat qilgan;

Surxondaryo okrugida madaniy muassasalarni tashkil etishdagi muammolar, milliy madaniy muassasalarni taqiqlanishi, ushbu soha xodimlarining ayanchli siyosiy tazyiqqa olinishi, mahalliy madaniy muassasalariga sovet san’at asarlari, musiqa asboblarini joriy etilishini taqiqlash kabi ma’lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqqimot” ko‘rsatuvini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-fevraldagi 03-30-322-son ma’lumotnomasi bilan tasdiqlangan). Natijalar, madaniy muassasalarni tashkil etishdagi muammolar va milliy ziyolilarni ayanchli ta’qib ostiga olinishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keng xalq ommasiga etkazilishiga xizmat qilgan;

Surxondaryo viloyatida tashkil topgan madaniy muassasalarning iqtisodiy ahvoli, uni ish o‘rinlar bilan ta’minlashdagi muammolari, mutaxassislarni etishmasligi, rus tilli aholi vakillarini ushbu sohani milliy tuyg‘ular asosida tushunib etmasa-da boshqaruv tizimiga rahbar etib qo‘yilishi, Termizdagi kino seanslar ko‘pincha zobitlar uyida shuningdek M.Gorkiy nomidagi istirohat bog‘ida tashkil qilinganligi, Denovda dastlabki gazeta lotin alifbosida “Qizil Denov” nomi bilan chop etilganligiga doir tarixiy ma’lumotlardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi targ‘ibot ishlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 13-fevraldagi 04/12-43-son ma’lumotnomasi). Natijalar, Surxondaryo viloyatida tashkil topgan madaniy muassasalarni iqtisodiy holati, uni ish joylari bilan ta’minlashdagi muammolar va mutaxassislarni etishmasligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni jamoatchilikka etkazishga asosan xizmat qilgan;

Sovet davrida Surxondaryoda tashkil topgan teatrlar, muzeylar, xalq jamoalari, kutubxonalar, radio uzellar, matbuotdagi chiqishlar asosan milliy-an’anaviy qadriyatlarga zid bo‘lgan kommunistik mafkura siyosati ta’sirda bo‘lganligi hamda ateistik ruhda nazoratga olinganligi, milliylikdan deyarli voz kechgan “yangi sovet adabiyoti” shakllanganligi, Boysunda tuzilgan “Shalola” ansambli faoliyatiga sovet davlatining ta’siri sababli ma’lum vaqt cheklab qo‘yilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi targ‘ibot ishlarida asosan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 13-fevraldagi 04/12-43-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar Surxon vohasi ziyolilarining milliy madaniyat yuksalishiga qo‘shgan hissasini o‘rganishga doir ma’lumotlarni kitobxonlar orasida targ‘ib etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 tailmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ish e’lon qilindi. Shu jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan asosiy natijalarini nashr etish

tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, chet el jurnallarida 7 ta maqola, xalqaro anjumanlarda 4 ta maqola, respublika ilmiy anjumanlarida 7 ta maqola chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya asosan kirish, uch bob, xulosa, manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda madaniyat muassasalariga nisbatan yuritgan siyosati”** deb nomlanib, Unda sovet hukumati g'oyaviy-mafkuraviy tazyiqlarining madaniyat muassasalari faoliyatiga ta'siri va Surxondaryoda sovet hokimiyati madaniy muassasalarni mustahkamlashda xalq ta'limida amalga oshirgan siyosatning natijalari tahlil qilinadi.

XX asrning asosan 20-yillari oxiri va 30-yillari boshida, O'zbekiston SSRda bolsheviklar partiyasi tomonidan amalga oshirilgan “madaniy inqilob” o'zbek milliy madaniyatiga qattiq zarba berdi. Markaz, o'zbek xalqining urf-odatlarini va asriy qadriyatlarini milliylikini zararli deb hisoblab, ularni yo'q qilishga harakat qilishdi.

Madaniy-oqartuv muassasalari Sovetlar hukmronligi davrida mafkuraviy g'oyalarni ommaga chuqur singdirish jarayonida muhim targ'ibot vositasi sifatida xizmat qilgan. Sovet rejimi esa, o'z navbatida, bunday maskanlar faoliyatini “Kommunizm” barpo etuvchisini tarbiyalashga yo'naltirib, ularning g'oyaviy-mafkuraviy yo'nalishini belgilab berdi¹⁷. Kommunistik mafkuraning “shakli milliy, mazmuni sotsialistik” degan g'oyasi madaniyat sohasidagi barcha jarayonlarni siyosatga bo'ysundirishga olib keldi.

Mamlakatda ommaviy klub muassasalari va tashkilotlarini vujudga keltirishga doir barcha ishlar kommunistik partiya rahbarligi ostida olib borildi. Sovet hokimiyati milliy-hududiy chegaralanish jarayonida tashkil etilgan respublikalarda mahalliy aholining o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni inobatga olgan holda, ularning milliy an'analari, mentaliteti va kundalik turmush tarziga uyg'unlashgan madaniy-oqartiruv markazlarining maxsus shakllarini takomillashtirishga katta urg'u berdi. Bunda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarida “Qizil choyxona”lar, “Qizil o'tov”lar asosiy madaniyat o'chog'i bo'lib qoldi.

XX asrning 20-30-yillarda respublikada ko'plab madaniy obyektlar va san'at

¹⁷ Yunusova X. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. – T.: Zarqalam. 2005 –B. 15.

muassasalari barpo etildi. 1932-yil holatiga ko'ra, respublika hududida faoliyat ko'rsatgan madaniy muassasalar soni quyidagi ko'rinishda aks etgan: kutubxonalar – 707 ta, klublar – 3087 ta, kinoqurilmalar – 409 ta, teatrlar – 32 ta, muzeylar – 13 tadan iborat edi.

Respublikada tobora chuqurlashishib borayotgan madaniy qurilish jarayoni mamlakatda avj olgan totalitar tuzumning qattiq nazorati va mafkuraviy bosimi ostida qoldi. Shunday murakkab sharoitda madaniyat muassasalari o'z faoliyatini to'laqonli amalga oshira olmay, cheklovlarga duchor bo'ldi. Soha vakillarining ijodiy imkoniyatlari cheklanib, ularning faoliyatiga turli mafkuraviy to'siqlar qo'yildi. Bu holat respublika madaniy hayotining izchil rivojlanishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Tarixiy statistik ma'lumotlarida ko'rsatilishicha, 1925-1941-yillar davrida xalq ta'limi maktablari soni keskin ancha muttasil o'sib borgan. Masalan, 1924-1925-o'quv yillarida 160 ta sovet maktabi tashkil etilgan bo'lsa, 1941-yilda bu ko'rsatkich 5504 taga yetgan. 1924-1925-o'quv yillarida maktab o'quvchilari soni 17209 tashkil etgan bo'lsa¹⁸, 1941-yilga kelib o'quvchilar soni 1 mln. 315 ming kishiga yetgan¹⁹.

XX asrning 20-yillarida Surxondaryoda bolalar soni 25% ni tashkil etgan bo'lsa, 1921-yilda maktab o'quvchilari soni 10 nafar, maktab o'quvchilari soni 10 nafarni tashkil qilgan. Bu, albatta, haqiqatdir. 1924-yilga kelib O'zbekistonda maktablar soni 1500 taga yetdi va 116 ming o'quvchi bitirdi²⁰.

1920-yillarda mahalliy xalq orasida norozilik kayfiyati vujudga keldi. Milliy masalalar sun'iy ravishda bo'rttirib yuborildi. 1920-yillarda turkiyzabon xalqlar yagona bo'lib, ularning madaniyati, an'analari, dinlari va tarixiy ildizlari mushtarakdir. Ularni ajratib bo'lmaydi degan g'oya ilgari surilgandi. Bu g'oyani markaz rad etgandi va panislomizm, panturkizm va burjua millatchiligi deb baholagandi.

Sovet tuzumi yillarida vaqtli matbuot va madaniy-oqartuv muassasalariga ham keng e'tibor qaratildi. Chunki, O'zbekiston aholisini uning uchun yot bo'lgan marksizm-leninizm g'oyalari asosida tarbiyalash muhim siyosiy vazifa ana shu "madaniy o'choqlar" zimmasida edi. Bu, muhim siyosiy soha bo'lganligi uchun ham unga rahbarlik qilishni partiya o'z qo'lga olgan va unga muttasil diqqat e'tibor qaratib, hatto mablag'ni ham ayamagan edi.

Surxondaryo okrug ijroiya qo'mitasining 1928-yilgi yig'ilishida savodsizlikni tugatish o'z davrining muhim masalasi bo'lib, bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Yig'ilishda ta'kidlanganidek, 1927-yilda okrugda 22 ta savodsizlikni tugatish maktablari bo'lgan bo'lsa, 1928-yilda ular 42 taga etdi. Qishloqlardagi savodxonlik holati muhokama qilinib, maktab ochilmagan joylarda savodsizlikni tugatish maktablarini ochish zarur deb topildi. Shuningdek, xotin-qizlar maktablari faoliyatiga to'xtalib, ahvol ancha yaxshilanganligi ma'lum qilindi²¹.

1929-yil dekabrda Surxondaryoda ziyoli ayollarning yetishmasligi, kamligi

¹⁸ Ўзбекистан за 15 лет. – Ташкент, 1939. – С. 79; Народное образование в Узбекистане. – Ташкент, 1947. – С. 18 – 19.

¹⁹ Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент, 1974. – Б. 460.

²⁰ Alimova D. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq. 2002. – B. 166,

²¹ Денов туман давлат архиви, 6-фонд, 1-руйхат, 8-иш, 9-варак.

tufayli maxsus kurslar tashkil etilishi buyurildi. Boysunda – 1 ta, Sherobodda – 1 ta, Sariosiyo va Denovda – 1 ta, Hisor va Jarqo‘rg‘onda – 1 ta qisqa muddatli kurslar ochildi va ayol o‘qituvchilar tayyorlandi²².

1930-yillarda Surxondaryo okrugida savodsizlikni tugatish va maktablar sonini ko‘paytirish hamda ushbu maktablarga maktab yoshidagi bolalarni jalb qilish ishlari keng ko‘lamda olib borildi. 1936-1937-o‘quv yilida okrugda 26246 nafar o‘quvchisi bo‘lgan 107 ta boshlang‘ich, 120 ta yetti yillik, 5 ta o‘rta maktab ishlab turdi. Afsuski, maktablarning moddiy-texnik ta‘minoti qoniqarsiz, darsliklar hamda malakali o‘qituvchilar yetishmas, o‘quv dasturlari va tarbiyaviy ishlar o‘ta darajada siyosiy tashvish tirilib yuborilgan edi. 1934-yilda Jarqo‘rg‘on tumanidagi 170 nafar o‘qituvchidan atigi oltitasi oliy ma‘lumotga ega o‘qituvchilar edi, xolos²³.

Boysunda asosan o‘qituvchi-mutaxassislar tayyorlash uchun 1932-yilda 6 oylik ta‘lim tarbiya kursi ochilib, 105 ta o‘qituvchi tayyorlandi. 1933-yilda 70 ta, 1934-yilda 20 ta muallimlikni bitirdi. Bundan tashqari, bu kadrlar yozgi ta‘til vaqtida pedagogika texnikumlari va institutlarda malaka oshirishga yuborildi. 1930-yillarda asosan tojik millatiga mansub bolalar uchun 15 ta o‘quv xonasi, 15 nafar bolalar maydonchasida tojik tili o‘quv kurslari ochildi va adabiyotlar, muallimlar bilan ta‘minlandi. Maktablarda 1934-yilda 243 nafar bola o‘quv jarayoniga jalb etildi. Ulardan 231 nafari kolxozchilarning farzandlari va 12 nafari yakka xo‘jaliklarga mansub oilalarning farzandlaridan iborat edi²⁴.

Umuman olganda barcha sohalarda sovet hokimiyati organlarining targ‘ibot-tashviqot ishlarida keng ko‘lamda ish olib borishlari haqida so‘z yuritildi. 1940-yilda umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish ishlari olib borilishi tumanlarda yo‘lga qo‘yila boshlandi²⁵. Vohaning Jarqo‘rg‘on tumanida maxsus attestatsiya komissiyasi tuzilib, tuman ijroiya qo‘mitasi tomonidan bir guruh ko‘p yillar ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchi xodimlarni birlashtirdi. Ular tumanlardagi umum ta‘lim maktab o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazdilar. Shuning bilan birga shu yilning o‘zida Jarqo‘rg‘on tumanida 100 ta yosh pionerlarning yozgi ta‘til mavsumida dam olish oromgohlari tashkil qilindi. Tuman xalq ta‘limi hamkorligida bir qancha sport musobaqalari tashkil qilinib, ularga 39 nafar kishi ta‘lim tarbiya berdi²⁶. Ta‘limning rivojlanishi 1941-yilda keng davom etdi harbiylashgan o‘quv yilida barcha oliy hamda o‘rta ta‘limda jami O‘zbekiston bo‘yicha 8400 nafar talaba kechki va sirtqi bo‘limlarda tahsil oldi²⁷.

Demak 1926-1927-yillarda maktablar dastlab vohada 3 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1927-1928-yillarda 5 taga yetdi. 1930-yillarda yoshi kattalar uchun savodsizlikni tugatish maqsadida kurslar ochildi. Surxon vohasida maktablar tarmog‘i kengaygan sari, sovet ideologiyasining ta‘siri ham kuchaydi. 1947-1948 o‘quv yilidagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Surxondaryo maktablarida jami 1890 nafar o‘qituvchi mehnat qilgan, ammo ularning katta qismi – qariyb 1000 nafari hatto o‘rta maxsus

²² Surхондарё вилоят давлат архиви, 315-фонд, 18-рўйхат, 1-иш, 133-варақ.

²³ ЎзМА, 34-фонд, 1-рўйхат, 1181-иш, 21-варақ.

²⁴ Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. Toshkent: Akadem nashr, 2011. – B. 166-167.

²⁵ Жарқўрғон туман давлат архиви, 20-фонд, 1-рўйхат, 198-иш, 4-варақ.

²⁶ Жарқўрғон туман давлат архиви, 20-фонд, 1-рўйхат, 191-иш, 7-варақ.

²⁷ Раҳманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1976. – С. 16

ma'lumotga ham ega bo'lmagan²⁸.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sovet davrida juda og'ir sharoitda, mafkuraviy qoliplar zanjirida O'zbekiston madaniyati rivojlandi. 1920-1930-yillar Sovet davlati uchun o'zining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash va siyosiy ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan muhim bir bosqich bo'ldi. Sovet davrida aktyorlar teatr va kinoda unutilmas obrazlar yaratdilar, rassomlar o'z asarlari orqali milliy ruhni aks ettirdilar, haykaltaroshlar monumental san'at namunalarini yaratdilar. Musiqachilar, bastakorlar, qo'shiqchilar va raqqosalar esa o'z ijodi bilan xalqning ma'naviy olamini boyitdilar. Ta'limga bo'lgan e'tibor kuchaydi, maktablar soni o'sdi. Biroq, bu yutuqlar o'zbek xalqi tomonidan boy berilgan ulkan yo'qotish va kuchli ijtimoiy silsilalar evaziga qo'lga kiritildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Surxondaryoda sovet hokimiyatini mustahkamlash yillarida madaniyat va madaniy muassasalarning faoliyati”** deb nomlangan. Unda Surxondaryoda sovet hokimiyatining sotsialistik madaniyat sohasida amalga oshirgan islohotlari, uning natijalari hamda Sovet hokimiyatining qatag'on yillarida ziyolilar va madaniyat muassasalariga nisbatan siyosatining oqibatlari tahlil qilinadi.

XX asrning 1920-1930-yillar sovet davlati uchun barcha sohalarda batamom o'zgarishlar, yangilanishlar davri bo'ldi. Dastlab Surxon vohasining mahalliy xalqini qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini tiklash va boy qatlam vakillarini yo'q qilib, o'rta qatlam va kambag'allarni sovet kishisi sifatida maydonga chiqib, ular yordamida vohaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohasini rivojlantirishga urindi. 1920-yillar oxiriga kelib O'zbekistonda partiya mafkura maydoniga yana bir g'oyani – madaniy merosni inkor etish g'oyasini tashladi, bu aslida “madaniy inqilob”ning asosiy maqsadlaridan biri edi²⁹.

XX asrning boshlarida Surxondaryoda madaniyat muassasalari faoliyatiga bo'lgan e'tibor yanada, madaniyat sohasi siyosat bilan chambarchas olib borildi. Shunday bir hukmronlik davrida o'lkamizda madaniyat muassasalarining faoliyati o'zgacha bo'ldi.

1925-yilda Surxondaryoda maktab ta'limi endi rivojlanayotgan davr bo'lib, hali ko'pgina joylarda an'anaviy maktablar faoliyat yuritayotgan edi. O'sha davrda faqat Termiz shahrida yangi tashkil qilingan maktablarni bir ozgina talabga javob berishi mumkin deb sovet davlati ta'kidladi. Shuningdek, Surxon o'lkasida bitta kutubxona bo'lib, uning fondidagi kitoblar har xil edi, ammo biroq o'quvchilari yo'q edi. 1925-yil Surxon okrugi ijroiya qo'mitaning II plenum yig'ilishida tashkilotlarning umumiy oziq-ovqati hamda Sherobod va Boysun tumanlarida umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi, ammo ixtiyoriy ravishda postanovkalar, spektakllar va kino seanslar tashkil qilindi. Mana shu yilda siyosiy ishlarni amalga oshirish uchun tumanlarda bittadan klublar tashkil qildi va partiya bo'limlari tumanlarda qizil choyxonalar tashkil qildi. Lekin, shuni ham ta'kidlash kerak, 1926-yilda Surxondaryo okrugi ijroiya qo'mitasi maxsus yig'ilishida Surxondaryoning bugungi

²⁸ Usmonov Q., Sodiqova M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. –Toshkent, 2005. – B. 401.

²⁹ O'zbekistonning yangi tarixi 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000. – B. 391.

taraqqiyotida hech qanday o'zgarish sezilmaydi, qishloqlarda sovet apparati organlari instruktorlar ishlamaydi, aholi mutlaqo gazeta, jurnallar bilan ta'minlanmagan, kelajakda qanday qilib madaniy – ma'rifiy ishlarni olib borish mumkin deb baholab ta'lim tizimi mamlakatda bo'layotgan hodisalarga qanday baho berish mumkinligi haqida majlis bo'lib o'tdi³⁰.

XX asrning 1930-yillarida Surxondaryoda ham keng ekranli kinoteatrlar qurish ishlari boshlab yuborildi. Keng ekranli kinoteatrlar qurilishi Denov, Termiz, Sherobod, Sho'rchi, Jarqo'rg'on kabi tuman va shaharlarida amalga oshirildi. Termizdagi kino seanslar zobitlar uyida hamda M.Gorkiy nomidagi istirohat bog'ida tashkil qilindi. Bu bog'da maxsus yozgi kinoteatr barpo etildi. Ammo shunga qaramay, aholiga kino xizmati ko'rsatish darajasini qoniqarli deb bo'lmas edi. Bu sohada Surxondaryo viloyati respublikada eng oxirgi o'rinda edi. Jumladan, 1940-yilda viloyat bo'yicha 25 ta kino qurilma ishlab turgan. Aholi nufuzi bo'yicha Surxondaryodan ancha kam bo'lgan Xorazmda 28 ta, Qoraqalpog'istonda 33 ta, Sirdaryoda 45 ta kino qurilma ishlab turgan³¹.

Surxondaryo okrugida mazkur sohada qator muammolar mavjud edi. Masalan, 1932-1933-yillarda viloyatdagi kolxoz klublarida bitta ham badiiy havaskorlik to'garaklari tashkil etilmadi³².

1940-yilda Surxon vohasida madaniy–ma'naviy sohada band bo'lganlar soni 16962 ta kishini tashkil qilgan edi³³.

Vohada tashkil etilgan radiouzelda ish yuritishning asosiy mazmuni markscha-lenincha mafkurani targ'ib etishga moslashtirildi. Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi ilk radio eshittirish 1925-yil 22-iyunda boshlandi³⁴. 1927-yilda Surxondaryo okrugida radioni ishga tushirish uchun davlat byudjetidan 5200 so'm mablag' ajratildi. Bu mablag'ga Termiz, Sherobod, Denov tumanlarida radio qurilmalar o'rnatildi³⁵.

1938-yil O'zbekiston KP MQ "Teatr san'atining ahvoli va uni yanada takomillashtirish va respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalashda uning o'rnini kuchaytirish tadbirlari to'g'risida"gi qarorni qabul qildi³⁶. Qarorga ko'ra teatr jamoalari, dramaturglar, rejissyorlar zimmasiga dastlab inqilobiy sovet turmushini ko'kka ko'taruvchi asarlarni ko'paytirishga asosiy e'tiborni qaratish kerakligi belgilandi. Milliy-tarixiy mavzuga doir asarlarga "burjua mafkurasiga sajda qilish" deb baholandi. 1940-yilda Surxondaryoda 2 ta, jumladan, Termiz, Denov xalq teatrlari faoliyat olib borib, ularda 63 kishi xizmat ko'rsatdi³⁷.

1956-yilda Denovda Sarvar Otaqulov rahbarligida drama xalq teatri o'zining 14 qatnashchilari bilan ishga tushdi. 1960-yillarda Termiz shahrida Muhayyo Bozorova rahbarligida drama xalq teatri o'zining 15 nafar qatnashchilari bilan ishga tushdi. 1963-yilga kelib Termiz shahrida Muzaffar Azizov rahbarligida drama xalq

³⁰ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 45-фонд, 1-рўйхат, 25-иш, 76-варақ.

³¹ Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – С. 330.

³² Сурхондарё вилоят давлат архиви, 45-фонд, 1-рўйхат, 101-иш, 58-варақ.

³³ "Termiz universiteti" gazetasi, 2001-yil 17-noyabr.

³⁴ Azimov M. Termiz tarixi. (Eng qadimgi davridan XXI asr boshigacha). –Nasaf. 2001. – B. 152.

³⁵ ЎзМА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 4158-варақ.

³⁶ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 45-фонд, 1-рўйхат, 101-иш, 58-варақ.

³⁷ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 361-фонд, 1-рўйхат, 242-иш, 49-варақ.

teatri o'zining 15 nafar qatnashchilari bilan faoliyat boshladi. Bu teatlarda ham albatta sovet g'oyalarining hidi ufurib turuvchi sahna asarlari namoyish qilinardi. 1978-yilda Uzun tuman madaniyat markazi qoshida Nasriddin Yoqubov rahbarligida "Sayyor" xalq havaskorlik milliy sirk jamoasi ish boshladi³⁸.

Butun mamlakatda bo'lgani singari, Surxondaryo okrugi ham yangi siyosiy jarayonga tortildi. Bu tarixga quloqlashtirish nomi bilan kirdi. 1929-1933-yillarda Sovet hukumati tomonidan quloqlashtirish siyosati uch toifada amalga oshirildi: birinchi toifadagi quloqlar sudsiz, so'roqsiz konsentratsion lagerlarga yuborilgan va hatto otib tashlangan, ammo ularning otilmay va qamalmay qolganlari ikkinchi toifaga o'tkazilgan. Ikkinchi toifadagilar SSSR ning yoki o'zlari yashagan yurtning olis o'lkalariga surgun etilgan. Uchinchi toifadagi "quloqlar" esa jamoa xo'jaliklaridan chetroqdagi posyolka va tumanlarga joylashtirilgan³⁹.

1930-yil oxirlarida ulkan vakolatlar berilgan Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi qoshida Tuzatish mehnat lagerlari boshqarmasi boshlig'i maydonga keldi va unda g'oyat keng ko'lamli loyihalarni bajarishni bo'yniga oluvchi lagerlar tashkil etish ko'zda tutildi⁴⁰. Shunga muvofiq, qisqa vaqt ichida O'zbekistonda 17 ta maxsus quloq posyolkalari tashkil etildi⁴¹. Bunday manzilgohlar rasman Mehnat tuzatuv posyolkalari, ba'zan quloqlar lagerlari deb ham atalar edi. Ana shunday posyolkalardan to'rttasi Surxondaryo okrugining yangi o'zlashtirilgan paxtakor rayonlarida barpo etildi. Bundan tashqari, Sariosiyodagi 17-sonli bog'dorchilik sovxoz va Termiz tumanidagi Garm kolxozi a'zolari ham asosan surgun qilinganlar hisobiga to'ldirildi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1941-yil 1-iyul holati bo'yicha Surxon sovxozida 6908 kishi, Qumqo'rg'onda 6800 kishi, Oqqapchig'ayda 3444 kishi, Hazarbog'da 10502 kishi, viloyat bo'yicha jami 27654 nafar quloq qilinganlar yashashi aniqlandi⁴². Ularga quloqlar, amir amaldorlari, ruhoniylar, milliy ziyolilar oila a'zolari bilan birga surgun qilinganlar. Sariosiyo tumanida 526 xo'jalik quloq qilingan bo'lib, shundan 192 kishining ismi aniqlandi, xolos⁴³.

Sovet hokimiyati "sotsialistik" madaniyatni mahalliy aholi orasida qattiq targ'ib etildi. Bu holat esa mahalliy aholi o'rtasidagi diniy rahnomalar, yirik amaldorlar, shoir, yozuvchi, baxshi ijodkorlar, mudarrislar kabilarni qatag'on qilinishiga sabab bo'ldi. Shuningdek arab alifbosini o'qish, yozishni biladigan, mustaqil bilim berish hamda uni ilm bilan bog'lashga qurbi yetadigan mahalliy aholi vakillarini qatag'on qilish asosida yo'q qilishga jiddiy kirishishni eng muhim reja qilib olingan edi. Shu sababli o'ziga to'q, o'rta miyona aholi vakillariga qarshi ateistik hujum tashkil etilib, ularni mol-mulki talon-toroj qilinib, go'yoki boy-quloq sifatida surgun va qatag'on qilindi yoki sud, so'roqsiz otib tashlandi. Tadqiqot davomida o'rganilgan arxiv hujjatlaridagi tergov so'roqlarida qatag'on va surgun qilinganlarni deyarli asosiy qismi diniy-madaniy muassasalarda faoliyat ko'rsatgan

³⁸ Surxondaryo viloyat Madaniyat markazi arxividan 2-fond, 4-ro'yaxat, 3-jadval, 3-varaq.

³⁹ Surgun (Shahidlar xotirasi). – Toshkent, 2000. – B. 6.

⁴⁰ Karimov N. "Katta qirg'in" ning kelib chiqish sabablari va omillari. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 49.

⁴¹ Irzayev B. "Katta qirg'in"ning kelib chiqishi arafasidagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoit. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 18.

⁴² Шеробод туман давлат архиви, 42-фонд, 1-рўйхат, 363-иш, 252-варак.

⁴³ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 18-фонд, 1-рўйхат, 521-иш, 2-3-варак.

yoki uni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish maqsad qilib olingan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, mustabid tuzum davrda sovet hokimiyatining Surxon vohasida sotsialistik madaniyat sohasida amalga oshirgan islohotlariga imkon qadar siyosiy tus berildi. Bu vaqtga qadar aholi o'rtasida olib borilgan keng ko'lamlı targ'ibot ishlari natijasida tafovut shakllantirilgan edi. Sovet hokimiyati sotsialistik madaniyatni shakllantirishda xalqning yordamiga tayandi. Uni amalga oshirishda qatag'on va ommaviy qotilliklar yo'li bilan olib borildi. To'g'ri sotsialistik madaniyatni shakllantirish borasida tuzilgan islohotlar albatta madaniyatni va madaniyat muassasalarini rivojlantirishga qaratilgan edi, biroq milliy mafkuramiz, an'analarimiz, qadriyatlarimiz siqib chiqarilgan edi. O'zligini himoya qilgan xalq sovet davlatining siyosiy tazyiqiga uchragan edi.

Uchinchi bob **“Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda Surxondaryoda madaniy hayot hamda madaniyat sohasidagi o'zgarishlar”** deb atalgan. Unda ikkinchi jahon urushi, undan keyingi yillarda Surxondaryoda madaniy hayot, madaniyat muassasalari faoliyati va Sovet hokimiyatining so'ngi yillarida madaniyat muassasalari faoliyatidagi muammolari yoritilgan.

XX asrning 1940-1941-yillarida Sovet hokimiyatining ayanchli siyosati Surxon hududini ham chetlab o'tmadi. Mustabid tuzum davrida Surxondaryo hududida ham ijtimoiy-madaniy sohada ziddiyatli o'zgarishlar amalga oshirildi. Sovet hokimiyati o'z oldiga madaniy-ma'rifiy ishlarni siyosiy ishlar bilan birga olib borgan. Bu qaltis harakatlar natijasida xalqning boy madaniyatini yo'q qilindi va lenincha-stalincha g'oyalarni rivojlantirishni yo'lga qo'yishga harakat qildi. Surxondaryo vohasining aholisini savodxon qilish bilan bir vaqtda tarixiy yillar mobaynida davom etib kelayotgan madaniyatini yo'q qildi. Milliy-ma'naviy madaniyatga bir yoqlama, sinfiy nuqtayi nazaridan yaqinlashdi, ularni mensimaslik mahalliy xalq ichida norozilikni keltirib chiqardi. Surxon vohasining madaniy muassasalari ham kommunistik siyosat qurboni bo'lgan. Xalq hech bir ishni o'zlarining xohish va ixtiyori bilan qilinmagan.

Ikkinchi jahon urushining og'ir va mashaqqatli yillari Sovet hukumatining o'zining markazlashgan va bir tomonlama siyosatini respublika xalqlariga, shu jumladan O'zbekiston aholisiga singdirish harakatlarini to'xtatmadi. Aksincha, bu davrda rus tiliga va umumiy maorif tizimida rus tilining rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Surxondaryo viloyatining Sherobod, Denov, Sariosiyo va Termiz kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududlaridagi maktablarda rus tili fanini o'qitish sifati va unga bo'lgan e'tibor yanada oshirildi. Markazdan kelgan buyruqqa ko'ra, endilikda har bir pedagog rus tilida erkin va aniq muloqot qila olishi shart edi. Bu talab nafaqat o'quv jarayonini ruslashtirishga, balki mahalliy ziyolilarning rus tilini mukammal bilishini ta'minlashga qaratilgan edi. Natijada, rus tilini chuqur o'rgatadigan maxsus maktablar va turli to'garaklar tashkil etila boshladi. Ushbu siyosatning uzoq muddatli oqibati rus tilining respublika hayotida, jumladan davlat boshqaruvida asta-sekin ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib keldi⁴⁴.

1940-yillarning o'rtalariga kelib O'zbekistonda 200 ga yaqin gazeta chiqa

⁴⁴ ЎзМА, 7298-фонд, 1-рўйхат, 18-иш, 98-варақ.

boshladi. Shundan 124 tasi o‘zbek tilida-52 ta jurnal, undan 19 tasi o‘zbek tilida nashr qilina boshladi. Harbiylar uchun o‘zbek tilida 14 ta front va 12 ta diviziya gazetasi nashr etildi. Ular quyidagicha nomlangan: “Front haqiqati”, “Dushmanga qarshi olg‘a”, “Qizil armiya” kabi bir qator gazetalar.

Shuningdek, bu vaqtga kelib madaniyat muassasalarining bir qismi bo‘lgan kutubxonalar ham e‘tibordan chetda qolmadi. O‘zbekiston miqyosida mavjud kichik kutubxonalar bir-biriga qo‘shib, yiriklashtirilib yaxshi binolarga joylashtirilgan va natijada, 1940-yilda O‘zbekistonda 1792 ta ommaviy kutubxona ishlab turgan, ulardagi kitob va jurnallar soni 25553 ming nusxani tashkil etgan. Mazkur kutubxonalarning 1295 tasi qishloq joylarda bo‘lib, ulardagi kitob fondi 974 ming nusxadan iborat bo‘lgan⁴⁵.

1940-yilda O‘zbekiston respublikaning qishloq joylarida 3813 ta qizil choyxona va 300 ga yaqin qiroatxona mavjud bo‘lgan⁴⁶.

1940-yillarning boshlarida O‘zbekiston va shu jumladan Surxondaryo hududida ikkinchi jahon urushi ta‘sirida madaniyat muassasalarining turli yo‘nalishlari faoliyatida biroz susayishlar bo‘ldi, ammo madaniyat muassasalari faoliyati to‘xtab qolgani yo‘q edi.

Bundan tashqari urush yillari teatr san‘atiga alohida e‘tibor qaratildi. Madaniyat uylari qoshlarida teatr, havaskorlik to‘garaklari tashkil etildi va ulardan alohida guruhlar tuzilib, 36 taga yetdi. Mashaqqatli front maydonida jang qilayotgan askarlarga, front ortiga ham har xil badiiy chiqishlari bilan, qo‘shiqlari bilan konsertlar uyushtirildi. Albatta bu sayyod truppalarning faoliyatida ham sovet tuzumining g‘oyalari mujassam edi. Chunki shu davrning taqozosi edi⁴⁷.

1948-yil 17-noyabrda O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashi № 2186 raqamli qaroriga ko‘ra barcha madaniyat muassasalarini mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlash masalasi ko‘rildi. Qarorga ko‘ra klub, kutubxona, maktab, muzeylarni ishchi xodimlar bilan ta‘minlash, xotin-qizlarni ishga jalb qilish masalalari belgilandi. Ayniqsa qarordan kelib chiqib Buxoro, Xiva, Qo‘qon va Termiz shaharlari madaniyat muassasalariga alohida e‘tibor qaratish masalalari ko‘rildi va bu barcha muassasalar kadrlari avvalam bor sovet mafkuralarini to‘la to‘kis targ‘ib qila olishi kerak edi⁴⁸.

1950-yillar sovet davlati o‘zining hukmron mafkurasini xalqimiz ongiga singdirishning kuchaygan davrlaridan biri edi. Sovet davlati bundayin maqsadlarini amalga oshirishda asosan madaniyat sohalarining barcha ko‘rinishlariga urg‘u berdi. Shular jumlasidan 1950-yillarning ikkinchi qismida, Termiz shahrida 1958-yilda “Ленин байроғи”-260 nusxadan 175 nusxa, “Ленинская знамя”-260 nusxadan 175, “Kommunist” gazetalari 104 nusxadan 59 ta nusxa nashrdan chiqdi. Belgilangan sarflanishi kerak bo‘lgan narx 822 rubldan 410 rubl sarflangan⁴⁹.

XX asrning 1960-1970-yillarida Surxondaryo teatri ancha samarali tarzda ijod qildi. Shu yillarda teatrlarning sahnalarida H.G‘ulomning “Farg‘ona hikoyasi”,

⁴⁵ ЎзМА, 58-фонд, 16-рўйхат, 1679-иш, 2-варақ.

⁴⁶ Народное хозяйство УзССР за 50 лет. Сб. стат. Материалов. –Т., 1967, - С. 226.

⁴⁷ Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S.O‘zbekiston tarixi.-Toshkent, “Iqtisod-moliya”. 2005. – B. 308.

⁴⁸ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 51-фонд, 54-рўйхат, 4-иш, 6-7-варақлар.

⁴⁹ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 1-рўйхат, 22-иш, 17-варақлар.

Hamzaning “Maysaraning ishi”, A.Jamolning “Ko‘z ilg‘amas soyalar”, T.Sobirovning “Qaydasan hayot”, H.Azimovning “Taqdir” asarlari sahnaga qo‘yildi⁵⁰. Biroq tadqiq etilayotgan yillarda sovet turmush tarzini targ‘ib qilgan sahna asarlari teatrlar repertuarlaridan ko‘proq o‘rin oldi. Shu davrda teatrlarda namoyish etilgan sahna asarlarining uchdan ikki qismini tarixiy revolyutsion ruhdagi va sovet turmush tarzini yoritgan asarlar tashkil etardi. Jumladan, Z.Fathullaning “Hijron alangasi”, Xugayevning “Xotinimning eri”, Makayonokning “Tribunal”, R.Ibroximbekovning “Ko‘k eshik ortidagi ayol”, kabi asarlar ana shunday asarlar sarasiga kiradi.

1980-yillarda hukmron sovet mafkurasi tazyiqi va iskanjasi ta‘siridan respublikaning madaniy jarayoni chetda qolmagan, albatta. Madaniy hayotimizda kutilmagan qanchadan-qancha sinovlariga, sovet tuzumining tazyiqlariga ro‘para bo‘lganligi shubhasiz. Bu jarayonga baho beradigan bo‘lsak, madaniy-ma‘rifiy sohada vaziyat taqozosi bilan vaziyat taqozosi bilan sovet davlati siyosati va mafkurasi talablarini bajarishga majbur etildilar. Demak sovet davlati o‘z g‘oyalarini singdirish maqsadida albatta madaniyat muassasalari faoliyati juda qul kelardi. Bu yillarda kutubxonalar, teatrlar, kino, klub kabilar faoliyatidan unumli foydalandi.

1980-yillarda madaniyat muassasalarining yana bir turi Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan “Xalq havaskorlik” va “Bolalar namunali” folklor-etnografik xalq ansambllaridir. Ularga Sherobod tumani “Yangi turmush” madaniyat markazida Jumagul Jo‘rayeva rahbarligidagi 1982-yilda tashkil topgan “Chechalar” folklor-etnografik ansamblini misol qilishimiz mumkin.

1988-yilda Boysun tumani madaniyat markazida Habib Umarov rahbarligidagi “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli ham e‘tiborga loyiq. Bu “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli 1988-yilni o‘zidayoq unvon olishga sazovor bo‘lgan⁵¹.

1988-yilda Jarqo‘rg‘on tumani madaniyat markazida Muhayyo Zafariddinova rahbarligidagi “Surxon gullari” ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu “Surxon gullari” ashula va raqs xalq ansambli 1981-yilni o‘zidayoq unvon olishga sazovor bo‘lgan⁵².

1980-yilda Oltinsoy tumani madaniyat markazida Murodov Feruz rahbarligidagi “Oqar buloq tongi” ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu “Oqar buloq tongi” ashula va raqs xalq ansambli 1980-yilning o‘zidayoq unvon olishga sazovor bo‘lgan⁵³.

1986-yilda Oltinsoy tumani madaniyat markazida Hakimjon Asomiddin rahbarligidagi “Lola” ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu “Lola” ashula va raqs xalq ansambli 1986-yilni o‘zidayoq unvon olishga sazovor bo‘lgan.

1989-yilda Oltinsoy tumani madaniyat markazida Hotamova Matlub rahbarligidagi “Yoriltosh” ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu “Lola” ashula va raqs xalq ansambli 1986-yilni o‘zidayoq unvon olishga sazovor bo‘lgan.

⁵⁰ “Ленин байроғи” газетаси. 1985, 16-март.

⁵¹ Сурхондарё Вилоят Маданият Бошқармаси архиви, 5-жилд, 2 варақ.

⁵² Сурхондарё Вилоят Маданият Бошқармаси архиви, 5-жилд, 2 варақ.

⁵³ Сурхондарё Вилоят Маданият Бошқармаси архиви, 5-жилд, 2 варақ.

1980-yilda Uzun tumani madaniyat markazida Meliboyev Ehson rahbarligidagi “Rohat” ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Shu yili Ahmedov Botir rahbarligida “Rayhon” ashula va raqs xalq ansambli ham tashkil topdi. 1980-yilning o‘zidayoq bu ikkala ansambl ham unvon olishga sazovor bo‘lgan.

1983-yilda Sho‘rchi tumani madaniyat markazida Akrom Botirov rahbarligidagi “Kumush tola” ashula va raqs ansambli tashkil topdi. Bu “Kumush tola” ashula va raqs xalq ansambli 1983-yilni o‘zidayoq unvon olishga sazovor bo‘lgan⁵⁴.

Boysunda 1969-yili Yulduz Xursandova rahbarligida tuzilgan “Shalola” ashula va raqs ansambli alohida diqqatga sazovor. “Shalola” ashula va raqs ansambli ham o‘z ijodi davrida sovet mafkurasi tazyiqlariga uchragandi. Lekin boysunlik san’atkorlar o‘z faoliyatlariga sodiq qolib, qadim san’at durdonalarining yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun chidam va sabr bilan o‘z ijodlarini davom ettirdilar.

1985-yilda “Sovet O‘zbekistoni” gazetasida mashhur “Shalola” qayoqqa yo‘qoldi?” degan maqola chop etildi. Bu maqola ansamblning kelajagi uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Natijada ansamblni qayta tiklash ishlari boshlanib ketdi. O‘sha paytlarda Boysun rayoni partiya qo‘mitasining birinchi kotibi bo‘lib ishlagan Allamurod Soatmurodov ansamblini tiklashda katta jasorat ko‘rsatdi. Chunki milliy an’analar va qadriyatlarni anglashga qarshi kurash olib borilgan o‘sha kezlarda xalq ansamblni tuzish oson ish bo‘lmagan. Bunday og‘ir vazifani zimmaga olish uchun katta jasorat va vatanparvarlik kerak.

1980-yillarning oxirlarida va 1990-yillarning boshlarida O‘zbekistonda mustaqillik uchun kurash kuchayib, aholi o‘rtasida mustaqillik g‘oyalari keng tarqaldi boshlandi. Surxondaryo viloyatidagi madaniyat muassasalari 1980–1990-yillarda, ya’ni sobiq Ittifoq davrining so‘nggi bosqichida va mustaqillikning dastlabki yillarida, o‘z faoliyatini kengaytira oldi. Ushbu davrda madaniyat muassasalari o‘z faoliyatlarini nafaqat san’at va madaniy tadbirlar, balki yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ruhiy kamolotiga hissa qo‘shish maqsadida ham olib bordi.

1990-yil ko‘pgina sohalar qatori madaniyat sohasi uchun ham yangi o‘zgarishlar olib kelgan tarixiy sanalarga boy yil bo‘ldi.

1990-yil shu yil KPSS XXVIII O‘zbekiston kommunistik partiyasining XXII xalq deputatlari syezdida bo‘lib o‘tdi. Bo‘lib o‘tgan syezdlarda bir qator qarorlar qabul qilindi. Ushbu qarorlar madaniyat sohasiga yanada katta e’tibor qaratildi. 1990-yil madaniyat muassasalarining xo‘jalik yuritishning yangi usuliga o‘tishga tayyorgarlik yili bo‘ldi. Shu munosabat bilan viloyatimiz madaniyat muassasalarida ishlayotgan xodimlar attestatsiyadan o‘tkazildilar⁵⁵.

Joylarda madaniyat muassasalari uchun yangi binolar qurilishiga ham alohida e’tibor qaratildi. Masalan, Angor tumanida 400 o‘rinli, Jarqo‘rg‘on tumanida 600 o‘rinli, Sharg‘unda 600 o‘rinli madaniyat uylari, Sho‘rchi tuman markaziy kutubxonasi, Termiz Davlat musiqa bilim yurtining 200 o‘rinli yotoqxonasi,

⁵⁴ Сурхондарё Вилоят Маданият Бошқармаси архиви, 5-жилд, 2 варақ.

⁵⁵ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 454-фонд, 4-рўйхат, 182-иш, 2-варақ.

Termiz hayvonot bog‘i va bir qancha sovxoz, kolxozlarda madaniyat muassasalari binolari qurila boshlandi⁵⁶.

Har yilgidek 1990-yilda ham viloyat madaniyat muassasalarida ommaviy tadbirlar, ko‘rik-konkurslar, festivallar va boshqa ko‘pgina tadbirlar o‘tkazildi. Masalan, viloyat miqyosida faoliyat ko‘rsatayotgan madaniyat va istirohat bog‘larida “Navro‘z” ommaviy sayli, 1-may Xalqaro birdamlik kuniga, 9-may g‘alabaning 45-yilligiga, 1-iyun bolalarni himoya qilish kuniga kabi Xulosa qilib aytganda, o‘rganilgan tarixiy bosqichda janubiy mintaqalarda madaniy sohada muhim o‘zgarishlar kuzatildi. San‘atning turli janrlari, adabiyot va umumiy madaniyatda bir qadar yuksalish sezildi. Bu yutuqlarning asosi, tabiiyki, soha xodimlarining fidokorona mehnati, ilmiy izlanishlari va betinim ijodiy faoliyatlari bilan bog‘liq edi. Ushbu rivojlanishning ijobiy jihatlari bilan birga, afsuslanarli tomoni shundaki, bu o‘sish jarayonida faqat sovet mafkurasining g‘oyalari ustunlik qildi. Kommunistik ideologiyaning hukmronligi esa aholining ma‘naviy olami va madaniy hayotiga jiddiy cheklovlar qo‘yib, ularning erkin rivojlanishiga to‘sqinlik qildi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida O‘zbekistonda sovet davrida madaniyat muassasalar faoliyati: natijalar va muammolar (Surxondaryo viloyati misolida 1920-1990 yy) ga oid jarayonlarni tahlil etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sovet davrida Surxondaryo viloyatida madaniy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ayrim tashabbuslar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ajratilgan mablag‘ va resurslar viloyat ehtiyojlarini to‘liq qondira olmagan. Bu holat madaniy taraqqiyotga to‘siq bo‘lib, sohaning asosan ideologik maqsadlarda shakllanishiga sabab bo‘lgan. Bugungi kunda ushbu tarixiy tajriba mintaqaviy madaniy merosni saqlash va yangi avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari esa Surxondaryoda madaniyat siyosatini takomillashtirish va uning zamonaviy ijtimoiy hayotga ta‘sirini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

2. Sovet hukumatining Surxondaryo viloyatiga asosan arzon xomashyo yetkazib beruvchi mintqa sifatida qarashi, hududning madaniy va ma‘naviy rivojlanishiga yetarli e‘tibor qaratilmasligiga sabab bo‘ldi. Bu esa viloyatda mavjud bo‘lgan madaniy-ma‘rifiy muhitning erkin rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qildi. Natijada ko‘plab iste‘dodli madaniyat, san‘at va ma‘rifat sohasidagi vakillar siyosiy qatag‘on qurboniga aylanishdi. Bolsheviklarning keng ko‘lamli qatag‘on siyosati milliy madaniyatga og‘ir talafot yetkazdi, uning tabiiy rivojlanishini izdan chiqardi.

3. Surxondaryo viloyatida sovet maorif tizimining joriy etilishi va uning jamiyat hayotiga ta‘siri atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot davomida viloyatda faoliyat yuritgan eski, an‘anaviy maktablarning tugatilishiga sabab bo‘lgan omillar aniqlab berildi. Sovet davlati mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan milliy urf-odatlarini, an‘analari va marosimlarini yo‘q qilishni maqsad qilib, “ommalashtirilgan savodxonlik” siyosatini asosiy mafkuraviy vosita sifatida

⁵⁶ Surxondaryo viloyat davlat arxivini, 454-fond, 4-rujihat, 182-ish, 2-varak.

qo‘lladi. Bu siyosat, aslida, milliy madaniyatni bir xillikka solish — ya’ni unifikatsiyalashga yo‘naltirilgan edi.

4. XX asrning 1920–1990-yillarida Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning jamiyat hayotiga ta’siri o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ilmiy izlanishlar ko‘p hollarda ideologik yo‘nalishga ega bo‘lgan, mavjud muammolar esa xolis baholanishdan yiroq edi. Markazdan berilgan ko‘rsatmalarga muvofiq, vohada asosan paxtachilik va unga bog‘liq sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, boshqa sohalar esa e’tibordan chetda qolgan. Shu bilan birga, o‘zbek tilining tarixiy yozuvlari bekor qilinib, dastlab lotin alifbosi, keyinchalik esa kirill alifbosi joriy etildi. Mahalliy madaniyatga nisbatan rus va Yevropa madaniyatining ustunligini targ‘ib qiluvchi siyosat kuchaytirilib, bu esa milliy o‘zlikning so‘nishiga sabab bo‘ldi.

5. Mahalliy seleksionerlarning dehqonchilikning muhim tarmoqlari — bog‘dorchilik, sabzavotchilik va chorvachilik sohalaridagi qimmatli ilmiy izlanishlari o‘z vaqtida e’tibordan chetda qolgan. Buning asosiy sababi, sovet rahbariyati orasida o‘lka aholisi haqida “savodsiz va bilimga ega emas” degan noto‘g‘ri stereotipning mavjudligi edi. Ushbu noto‘g‘ri qarashlar orqali sovet rahbariyati mahalliy aholining boy tarixiy merosini inkor etishga va ularni kamsitishga urindi. Surxondaryo viloyatida madaniyat muassasalari orqali madaniy hayot jonlangan bo‘lsa-da, bu rivojlanish asosan “yuqoridan pastga” tamoyili asosida amalga oshirilgan. Natijada madaniyatning ijtimoiy ildizlari bilan bog‘liqligi zaiflashdi va uning haqiqiy mohiyati chetlab o‘tildi.

6. Mintaqada ijtimoiy-madaniy sohani isloh qilish maqsadida komsomol va pioner kabi yoshlar tashkilotlari tuzildi. Tadqiqotda madaniyat muassasalarining faoliyati va sovet mafkurasining milliy-madaniy identifikatsiya jarayoniga ikkiyoqlama ta’siri ko‘rsatilgan. Bir tomondan, bu muassasalar ma’rifiy rivojlanishga hissa qo‘shgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy urf-odatlar, an’analar va tarixiy xotiraning zaiflashishiga sabab bo‘lgan. Surxondaryo viloyatida klublar, istirohat bog‘lari, kutubxonalar, teatrlar, muzeylar va hatto hayvonot bog‘i tashkil etildi. Kommunistik mafkuraning ustunligini ta’minlash va uni keng yoyish maqsadida, aholiga kino va radio orqali madaniy xizmatlar ko‘rsatildi. Ushbu madaniy muassasalar va xizmatlar asosan kommunistik mafkuraning singdirish maqsadida tashkil etilgan edi.

Dissertatsiya nihoyasida tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kun talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda Surxondaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotiga doir bir qator **takliflar va tavsiyalar** berilgan. Ular quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyatida inqilob arafasida va uning dastlabki yillarda buzib tashlangan: Boysun, Denov, Sherobod va Termiz-Pattakesardagi masjidlar, madrasalar tarixi haqidagi ma’lumotlarga tayanib, foto lavhalarini, me’morchiligini tiklash, innovatsion loyihalarni amalga oshirish:

Madaniy muassasalarni milliylik manfaatlaridan kelib chiqib himoya qilish, xalq og‘zaki ijodi namunalari, baxshichilik dostonlari, shoir va yozuvchilar shuningdek, milliy ziyolilar, olimlar hayoti, va faoliyatiga bag‘ishlangan

konferensiyalar, ko'rgazmalar, uy muzeylarini tashkil etish;

Boysun, Denov va Termizda madaniy muassasalar uchun xizmat qilgan binolarni tarixiy obida sifatida turizm salohiyatini hisobga olib sharqona asosda tiklash, muzeylarga aylantirish hamda undan foydalanish sifatini zamonaviy xizmat turlari bilan muvofiqlashtirish uchun bukletlar, yo'l xaritalari yaratish;

1920-1990-yillarda voqea madaniy hayoti va madaniy muassasalar faoliyatini o'zida aks ettirgan hujjatli, badiiy filmlar, tarixiy-badiiy asarlarni yig'ish asosida o'tmishni hozirgi vaqt bilan taqqoslash maqsadida tarixiy-badiiy avlodlar uchrashuvlar tashkil etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХУДАЙБЕРДИЕВА ГУЛНОРА ХУРСАНДОВНА

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧРЕЖДЕНИЙ КУЛЬТУРЫ В СОВЕТСКИЙ
ПЕРИОД В УЗБЕКИСТАНЕ: РЕЗУЛЬТАТЫ И ПРОБЛЕМЫ
(на примере Сурхандарьинской области 1920-1990 гг.)**

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
историческим наукам**

Термез – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2022.1.PhD/Tar1049 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, английский, русский) размещён на веб-странице Научного совета (www.terstu.uz) и на информационно - образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Холикова Рахбар Эргашевна доктор исторических наук, профессор Гаффаров Шакир Сафарович доктор исторических наук, профессор
Ведущая организация:	Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «23» октября 2025 года в 16.00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019. Таг. 78.02 по присуждению ученых степеней при Термезском государственном университете. (Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Термезском государственном университете (зарегистрирована под номером № 325).

Автореферат диссертации разослан «11» октября 2025 года (Протокол реестра рассылки № 1 от «11» октября 2025 года).



Т.Р.Пардаев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

О.А.Хамидов
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

Х.Э.Холмунинов
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобализации культура становится одним из ведущих факторов развития государств и повышения их национального авторитета на международной арене. Культурные учреждения играют важную роль в повышении духовного уровня и интеллектуального потенциала населения, а также способствуют социальной стабильности и интеллектуальному прогрессу. Процесс культурных изменений в мире, развитие информационных технологий и урбанизация значительно увеличивают значимость культурных учреждений. Поэтому сегодня многие развитые страны разрабатывают концепции развития культуры. В частности, в рамках программ, осуществляемых Организацией Объединенных Наций и ЮНЕСКО, поддержка культурной сферы в развитых и развивающихся странах осуществляется последовательно⁵⁷. Важнейшими аспектами являются укрепление роли культурных учреждений в повышении духовного потенциала населения, согласование образовательной и воспитательной работы, а также систематическая организация культурных мероприятий.

В ведущих научных центрах развитых стран мира проводится всесторонний научный анализ культурно-духовной политики советского периода. В ходе исследований подробно изучаются такие аспекты, как политика советской власти, направленная на массовые репрессии против местных интеллигентов, попытки реформирования системы образования на основе коммунистической идеологии, политика вытеснения национальности из деятельности культурных учреждений, ограничения свободы творчества и национальных ценностей, пренебрежительное и разрушительное отношение к историческим памятникам, а также ограничение культурных и образовательных прав народов периферийных регионов. В частности, основная цель советского режима – формирование сознания местного населения на основе коммунистической идеологии, а также подчинение всей деятельности интересам центра, исследуется с научной точки зрения.

В условиях широкомасштабных реформ, осуществляемых в период Нового Узбекистана, возникла возможность объективно подходить к историческим фактам, пересматривать культурное наследие и формировать взгляды, основанные на национальных интересах. В частности, важной задачей на сегодняшний день является научно-теоретическое и практическое переосмысление деятельности культурных учреждений на основе принципов патриотизма, гуманизма, духовного возрождения, уважения прав человека, восстановления и сохранения исторической памяти. Ведь «сохранение нашей святой религии, которая стала неотъемлемой частью многовековой истории и культуры, изучение и распространение бесценного духовного и образовательного наследия наших предков всегда остается важной задачей для

⁵⁷ UNESCO culture for development indicators: implementation toolkit / UNESCO Cultural Diversity Division. – Paris: UNESCO, 2009. – 112 p. (Culture and Development Indicators Series)

нас»⁵⁸. Этот подход особенно актуален в контексте исторических и политических процессов, что делает необходимым глубокое научное исследование деятельности культурных учреждений в прошлом.

Указ Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2020 года № УП-6000 “О мерах по дальнейшему повышению роли и влияния культуры и искусства в общественной жизни”⁵⁹, Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”⁶⁰, Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 июня 2021 года № ПП-5150 “О создании Агентства культурного наследия при Министерстве туризма и спорта Республики Узбекистан и мерах по инновационному развитию отрасли”⁶¹, а также другие нормативно-правовые акты, касающиеся данной сферы, служат важным инструментом для реализации поставленных задач.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. “Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления в социальном, правовом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. В настоящее время в Узбекистане и странах СНГ проводятся определённые исследования по истории СССР, а также по национальной истории суверенных государств. В частности, процесс реконструкции истории Узбекистана XX века (1920-1990-е годы) с точки зрения национальной идеологии и национальных интересов продолжается. Объективный анализ истории этого периода стал более популярным только с 2000-х годов, и к этому времени появились новые подходы к интерпретации истории 1920-1990 годов.

В диссертации литература, относящаяся к политическим, социально-историческим и культурным процессам в Узбекистане в 1920-1990 годах, была проанализирована и разделена на следующие группы: 1. Научные издания и массовая литература, опубликованные в советский период; 2. Научные исследования, созданные в период независимости.

В годы советской власти было создано множество исследований по вопросам социально-экономической и культурной жизни общества в 1920-1990 годах.

Основная особенность научных исследований и литературы, включённых в первую группу, заключается в том, что они были созданы в период, когда преобладала административно-командная система, и основывались на

⁵⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.– Тошкент: “O‘zbekiston”. 2021. – Б. 291.

⁵⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6000-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4829149>

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni. lex.uz/docs/-5841063

⁶¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5150-son Qarori. lex.uz/docs/-5465593

марксистской методологии с целью широкого распространения идеологических взглядов коммунистической партии. Многие научные работы, посвящённые различным аспектам социально-экономической и культурной жизни Советского Союза в период с 1920 по 1990 годы, были написаны именно в этот период, и в них явно прослеживается влияние господствующей идеологии.

В большинстве литературных источников, относящихся к этому историческому периоду, важнейшие вопросы в сфере культуры, в частности, основные критерии оценки её деятельности, определялись требованиями господствующей идеологии. Это можно ясно увидеть в многочисленных книгах и научных исследованиях, опубликованных в 1950-1960-х годах⁶². Несмотря на это, фактический материал и данные, приведенные в работах этих авторов, а также архивные документы, могут служить чрезвычайно важными и ценными историческими источниками для современных исследователей.

Интерес к научному анализу истории узбекского государства значительно возрос в 1960-1980-е годы XX века. В этот период в трудах ряда видных ученых, таких как Т.М. Кориниёзов, Х.Н. Пулатов, М. Карахонов, Г.А. Уваров, Р. Шарафиддинов, И. Кодиров, М. Вахобов, С. Мухаммедов, приоритетным было освещение и анализ с позиций коммунистической идеологии и господствующей политической идеологии. В этих работах “руководящая роль” КПСС в области культуры, сложная “диалектика” этого вопроса, а также процесс развития национальных культур в историческом контексте трактовались на основе коммунистических идей⁶³.

